

O'ZBEKISTON SSR II JAHON URUSHIDAN KEYINGI QISHLOQ XO'JALIGI RIVOJLANISHINING XUSUSIYATLARI

Madaminov Ulug'bek Maxamadjon o'g'li

University of Business and Science Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12515872>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda SSR hududida qishloq xo'jaligining urushdan keying rivoji va ko'rsatkichlari hamda bu sohada qilingan ishlar haqida ilmiy tahlil olib borilgan. Sohadagi vujudga kelgan jarayonlar atroflicha yoritib berilgan.

Ikkinchi jahon urushi tugaganidan so'ng Sovet hukumati tomonidan O'zbekiston rahbariyati oldiga paxta yetishtirishni qayta tiklash va rivojlantirish vazifasini qo'yildi. 1941 yilda respublika bo'yicha paxta ekilgan maydonlar 927,8 ming gektardan iborat bo'lib, paxta yetishtirish 1 716,4 ming tonnani, 1944 yilda esa ushbu ko'rsatkichlar 719, 6 ming gektar va 816,8 ming tonnani tashkil qilgan[1]. Bunday holat SSSR siyosiy rahbariyatini qoniqtirmas edi. Chunki urushdan keyin sovet iqtisodiyotini rivojlantirish uchun paxta yetishtirishni ko'paytirish katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shuning uchun 1946 yil 2 fevralda SSSR Xalq Komissarlar Sovetining "O'zbekistonda 1946–1953 yillarda paxtachilikni tiklash hamda yanada rivojlantirish rejasi va tadbirlari haqida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu hujjatda sovet hukumati tomonidan qo'yilgan topshiriqqa ko'ra, 1953 yilga kelib respublikada paxta yetishtirishni urushgacha bo'lgan darajaga nisbatan bir necha baravar oshirish ko'zda tutilgan edi[2].

Ikkinchi jahon urushidan keyin O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining ustuvor ahamiyatga ega bo'lganligi va paxtachilikning muttasil o'sib borganligini quyidagi faktlar misolida ham ko'rish mumkin. 1946–1950 yillarda paxtachilikka ajratilgan ekin maydonlari 148 ming gektarga ko'payib, hosildorlik 15,6 syentnerdan 20,7 syentnergacha ko'tarildi. Paxta ekin maydonlarining ko'payishi, asosan, boshqa qishloq xo'jalik ekinlari, shu jumladan, don ekinlari maydonining qisqartirilishi hisobiga yuz berdi. Ayni vaqtda, qishloq xo'jalik ishlarini mexanizatsiyalash bo'yicha ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. Natijada, 26 ta yangi mashina-traktor, 16 ta mashina-ekskavator va 14 ta mashina-chorvachilik stansiyalari barpo etildi.

Sovet hukumati O'zbekistonda paxta yetishtirishni ko'paytirish maqsadida ushbu sohani mexanizatsiyalash masalasiga ham o'zining e'tiborini qaratib, 1949 yilda respublika qo'shimcha ravishda 2,5 mingta traktor, 28 ta ekskavator, 1000dan ortiq ko'p yuk mashinalari oldi. Natijada, kolxozlarda paxta ekishni mexanizatsiyalash 92,2% ga, traktor bilan kultivatsiya ishlarini amalga oshirish esa 59,2% ga yetkazildi. Ta'kidlash joizki, bu kabi tendensiya 1950 yil va keyingi davrda ham davom etdi. Masalan, 1950 yilda O'zbekiston SSR qo'shimcha ravishda yuzlab traktor va boshqa qishloq xo'jalik mashinalari – paxta terish kombaynlari, o'nlab ekskavatorlar va turli texnika uskunalarini oldi. Natijada, qishloq xo'jaligida traktor parki va traktorlar bilan bajariladigan ishlar hamda mexanizatsiyalash darajasi ancha ko'paydi va uni 1949 yil bilan solishtirilganda, 9,3% ga o'sdi. Shu bilan birga, paxta dalalarida mineral o'g'itlarni ishlatish 246 ming tonna ko'paydi[3].

Ta'kidlash joizki, respublika kimyo sanoatining rivojlanishi birinchi navbatda, paxtachilik bilan bog'liq edi. Chunki, paxta hosildorligining oshishi mineral o'g'it va pestisidlarni ishlatish bilan bog'liq bo'lganligi sababli, ularni ishlab chiqarishni sezilarli darajada ko'paytirish sovet hukumati hamda respublika rahbariyatlarining siyosatida muhim rol o'ynagan. Shuning

uchun Qo'qon superfosfat zavodining quvvatini oshirish va Samarqandda xuddi shu kabi yangi zavodni qurish hamda Chirchiq kimyo kombinatida azot o'g'itlari ishlab chiqarishni ko'paytirish rejalashtirilgan edi va ushbu rejalar keyingi besh yillikda amalga oshirilgan.

Paxtachilikda mineral o'g'it va pestisidlarni qo'llanilishi muttasil oshib, ushbu tendensiya yil sayin barqaror xarakterga ega bo'lib bordi. Bu esa kelajakda yerlarning sho'rlanishi, tabiat va inson sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan shu kabi omillarning kuchayishiga olib keldi.

Urushdan keyingi respublika qishloq xo'jaligidagi yangi ijobiy tendensiyalardan biri bu paxta maydonlarini haydash va paxtani kultivatsiya qilishda traktorlar qo'llanila boshlandi, bu esa mehnat unumdorligini ko'tardi hamda ishchi kuchini sarflashni kamaytirdi. Aynan 1949 yilda paxtani mashina bilan terish boshlandi, bu esa respublika paxtachiligida ro'y bergan muhim voqea bo'lib, paxta yetishtirishni yanada ko'paytirishdagi asosiy omillardan biri bo'ldi.

Mamlakatimiz tarixshunosligida amalga oshirilgan so'nggi tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, qishloq xo'jaligining rivoji bo'yicha O'zbekiston uchun sovet hukumati o'rnatgan vazifalar asosida Markaz paxtachilikni rivojlantirishga doir ko'plab talablarni qo'ydi. Bu Talablarda, to'rt yil (1949–1952 yy)da respublikada paxta ekin maydonini 100–130 ming gektarga kengaytirish va paxta hosilini gektardan 25 syentnergacha ko'tarish vazifasi qo'yilgan.

Ushbu yo'nalishda kelajakda yanada "ulkan vazifalar" qo'yilgan edi: "...O'zbekistonda kelajakda paxtachilik rivoji uchun sharoitlarni yaratish bo'yicha barcha zaruriy choralarni amalga oshirish, keyingi yillarda paxta ekish maydonlarini 200–250 ming gektarga kengaytirish va paxta hosildorligini gektaridan o'rtacha hisobda 30 syentnerdan kam bo'lmagan holda ko'tarishga erishish ko'zda tutilgan edi"[4].

Lekin Markaz respublikaning iqtisodiy, insoniy va moddiy resurslari cheklanganligini hisobga olmadi. Paxtachilikni rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston oldida haddan tashqari yuqori vazifalar qo'yilganligi bois, 1949-1950 yillarda reja topshiriqlari bajarilmadi. Lekin shunga qaramay, respublikaning tabiiy va inson resurslarini shafqatsiz ishga solish hisobiga paxta ishlab chiqarishning yalpi hajmi shu davrda 1948 yilga nisbatan 51 foizga oshdi[5].

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda yaratilgan mashinasozlik sanoatining asosiy vazifasi paxtachilikni kompleks mexanizatsiyalashtirish, irrigatsiya-melioratsiya ishlar va qishloq xo'jaligining boshqa sohalari uchun zarur bo'lgan mashinalarni keng miqyosda ishlab chiqarishni tashkil qilishdan iborat bo'ldi. Natijada 1949 yilning o'zida respublika mashinasozlik zavodlarida mahsulot ishlab chiqarish 30 foizga oshirildi[6]. Umuman olganda, 1946–1950 yillarda paxtachilik uchun mo'ljallangan qishloq xo'jalik mashinalarini ishlab chiqarish 6 marta va mineral o'g'itlar yetkazib berish 1,8 marta oshgan[7]. Bundan ko'rinib turibdiki, respublikada mavjud bo'lgan mashinasozlik, shu jumladan, qishloq xo'jalik mashinasozligi va kimyo sanoatining asosiy vazifasi paxtachilikni rivojlantirishni ta'minlash edi.

Urushdan keyingi yillarda respublika aholisi, shu jumladan, kolxozchi va qishloq xo'jaligi ishchilarining turmush darajasi asta-sekin yaxshilanib borgan. Masalan, 1947–1950 yillarda O'zSSR kolxozlarining daromadi 2,5 marta o'sdi, kolxozchilarning mehnat haqiga pul to'lash va ularning real daromadi sezilarli ko'paydi: masalan pul daromadi 1950 yilda 1940 yilga nisbatan 3,5 baravar ko'tarildi. Shuningdek, 1946–1950 yillarda 1940 yilga nisbatan davlat tomonidan ishchi va xizmatchilarga yuqori miqdorda pensiya tayinlandi, ko'p bolali hamda yolg'iz onalarga to'lovlar miqdori oshirildi[8].

Shuningdek, respublika aholisining salomatligini yaxshilashga ham sezilarli darajada mablag' ajratilgan. Davolash-sanitariya va profilaktoriylar tarmog'i kengayib borib, ular O'zbekiston bo'yicha 1950 yilda 1940 yilga nisbatan 56% ga hamda mazkur davrlar ichida shifokorlar soni esa ikki baravar ko'paygan. Bu esa respublika aholisi, shu jumladan, kolxozchilarning ham moddiy ta'minotini yaxshilanishiga xizmat qildi va turmush darajasining o'sishini ta'minladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi bu kabi natijalarni respublika iqtisodiyoti, shu jumladan, qishloq xo'jaligidagi ijobiy faktor sifatida baholash mumkin. Lekin, shu bilan birga, Respublikaning iqtisodiy rivojlanishida paxta yetishtirish va paxtachilik sanoatining rivojlanishiga asosiy urg'u berilishi natijasida kelajakda O'zbekiston SSR iqtisodiyotida ro'y bergan salbiy yo'nalishning shakllanishiga sabab bo'ldi. Qishloq xo'jaligi, birinchi o'rinda paxtachilikning roli respublika iqtisodiyotida ustuvor ahamiyatga ega bo'ldi, bu esa o'z navbatida, uning mamlakatdagi sanoat rayonlariga xom-ashyo yetkazib beruvchi respublikaga aylanishi uchun zamin yaratdi.

Paxtachilikni rivojlantirishda irrigatsiya va melioratsiya ishlarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etgan. Mazkur sohada ham respublikada urushdan keyingi dastlabki yillarda sezilarli ishlar amalga oshirilishi sababli bir tomondan, qishloq xo'jaligida paxta monopoliyasini kuchaytirdi, ikkinchi tomondan esa agrotexnika qoidalarining buzilishi natijasida sug'oriladigan ekin maydonlarini meliorativ holatining buzilishiga olib keldi.

Ta'kidlash joizki, 1950 yillarda SSSRning agrar siyosati, shu jumladan, O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligini rivojlantirishda qo'riq va bo'z yerlarni keng o'zlashtirish ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan. Ushbu masalaga nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy jihatdan ham urg'u berilib, O'zbekiston SSR, Qozog'iston SSR, Oltoy o'lkasi va boshqa mintaqalardagi mavjud qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish orqali qisqa vaqtda mamlakatda qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarishni keskin ko'tarish hamda ziddiyatlashayotgan oziq-ovqat muammosini muvaffaqiyatli hal qilish mumkinligi taxmin qilingan edi.

Ayniqsa, 1950 yillarning o'rtalariga kelib SSSR Ministrlar Soveti va KPSS MKning "1954–1955 yillarda qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish hisobiga don yetishtirishni ko'paytirish haqida (1954 yil 27 martda qabul qilingan)" va "O'zbekiston SSR va Qozog'iston SSRda sug'orish va qo'riq yerlarni o'zlashtirish hisobiga paxta yetishtirishni oshirish haqida (1956 yil 6 avgustda qabul qilingan)"gi qarorlari qabul qilinganidan keyin qo'riq yerlarni o'zlashtirish katta sur'atlarda olib borilgan. Ushbu qarorlarning amalga oshirilishi natijasida 1950 yillarning o'rtalarida O'zbekiston SSRda sug'oriladigan va yangi o'zlashtirilgan yerlarning har yilgi o'sishi 50–70 ming gektarni tashkil qilgan[9]. Natijada, 1953–1961 yillarda respublikadagi ekin maydonlari 1,5 martaga ko'paytirildi.

1950 yillarda respublika qishloq xo'jaligini mustahkamlashda kolxoz va sovxozlarga kapital kiritishni kengaytirish hamda ularning material-texnik ta'minotini yaxshilash muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Faqat 1953–1958 yillarda O'zbekiston qishloq xo'jaligiga 320 million rubl kapital kiritildi. Mazkur davrda qiymati 180 million rubl bo'lgan turli qishloq xo'jalik texnikasi – 25 ming dona traktor, 8 ming dona omoch, 6 ming avtomashina va texnika bilan ta'minlandi[10].

Shuningdek, qishloqlarni elektrifikatsiya qilish ham ijobiy natijalar qo'lga kiritilgan. 1950 - yillarning birinchi yarmida respublika qishloq xo'jaligida elektro energiyadan foydalanish 87,8 million kilovatdan 146,2 million kilovatga, 1961 yilda esa ushbu ko'rsatkich 426,4 million kilovatga yetgan. Natijada, 1950 yilda elektro energiyadan 51% MTSlar va 77% sovxozlar

foydalangan bo'lsa, 1961 yilga kelib qishloq xo'jalik tashkilotlarining 93% dan ko'prog'i undan foydalanishni boshlagan.

Umuman olganda, urushdan keyingi va 1950 yillarning boshida qishloq xo'jaligi og'ir ahvolda edi. Bunga birinchi navbatda, boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik tizimining mavjudligi bo'lib, kolxozlar ushbu tizimining bir qismi edi. Shuningdek, sovet iqtisodiy tizimi rejali xarakterga ega bo'lganligi sabab ularning erkinligi cheklangan edi, qaysi qishloq xo'jalik mahsulotlarini qanday miqdorda yetishtirish hukumat tomonidan rejali asosda qat'iy belgilab berilar edi.

Buning natijasi o'laroq, yuqoridan tushirilgan rejalarining ob'yektiv hisob-kitoblarga asoslanmaganligi, shuningdek kolxozlarning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlari hisobga olinmaganligi sababli, ularning aksariyati reja topshiriqlarini bajarmas edilar. Masalan, 1951 yilda 1660 ta kolxoz, ya'ni ularning 72%i davlatga paxta topshirish rejasini bajara olmagan. Shuningdek, ulardagi hosildorlik ham past bo'lib, 191ta kolxozlar (9%)da paxta hosildorligi har gektardan olingan hosil 10 syentnerdan past bo'lgan. Kolxozlarning 44%i da esa hosildorlik 20 syentnergacha bo'lib, bu umumrespublika ko'rsatkichlaridan ham past bo'lgan. Shuningdek, kolxozlarda chorvachilikning rivojlanishiga ham e'tibor berilmagan. Chorvachilik bo'yicha hukumat tomonidan belgilangan rejani bajarish uchun ko'pgina kolxozlar paxtachilikdan topgan daromadlarining katta qismiga ishchi va mahsuldor qoramollar hamda chorvachilik mahsulotlarini sotib olish uchun sarflagan. Qishloq xo'jaligining pillachilik, uzumchilik, sabzavotchilik, asalarichilik kabi boshqa sohalarini rivojlantirishga ham kam e'tibor berilgan.

VKP(b) MK va SSSR Ministrlar Soveti tomonidan 1950 yil 30 mayda "Mayda kolxozlarni yiriklashtirish va partiya tashkilotlarining bu sohadagi vazifalari" qarori qabul qilindi. Ushbu qaror asosida O'zbekiston SSRda ushbu yilning avgust oyiga qadar 1770 ta kolxoz qayta qurilib, ular asosida 752 ta yirik kolxozlar tashkil qilindi. Natijada, kolxozlar soni qariyb ikki martadan ko'proqqa qisqartirilgan, bu esa o'z navbatida, ma'muriy boshqaruv apparatini 6582 ta shtatga qisqartirish imkoniyatini yaratgan[11].

1950 yilda qishloq xo'jaligida yangi sug'orish tizimiga o'tish haqida ham qaror qabul qilinib, unga ko'ra, yirik gidroelektrostansiyalar, kanallar va irrigatsiya inshootlarini qurish rejalashtirildi. Bu esa albatta, yangi yerlarni o'zlashtirish jarayonini hamda irrigatsiya-melioratsiya ishlarini jadallashtirish imkoniyatini yaratardi.

Ko'pgina kolxozlar chorvachilikni rivojlantirish, yangi yerlarni o'zlashtirish ishlarini tashkillashtirish, irrigatsiya-melioratsiya tarmog'ini ta'mirlash, elektrostansiyalar qurish o'rniga ishlab chiqarish rejasini hamda tushum-xarajat smetalarini qayta ko'rib chiqish bilan shug'ullanayotgani respublika hukumati tomonidan tanqid ostiga olingan. Bir qator kolxozlar, shuningdek, brigadalar o'rtasida mehnat va moddiy-texnik resurslarni to'g'ri taqsimlanmagan, mehnatni tashkil qilish hamda hisoblash esa noto'g'ri olib borilgan hamda mehnat intizomi juda sust bo'lgan. Kolxozlarning ayrim rahbarlari ekin maydonlarini kamaytirib ko'rsatgan, mehnatga layoqatli kolxozchilarni ijtimoiy mehnatga jalb qilmagan, kolxozchilarning bir qismi mehnat kunlarini bajarmagan, shu bilan birga chetdan ishchi kuchi ham yollamagan.

Lekin, shunga qaramay, sovet rahbariyati ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan rejali iqtisodiyotning kelajagini shubha ostiga olmagan. Masalan, KPSS MKning sentyabr (1953 y.) Plenumida qishloq xo'jaligida stalincha boshqaruv tuzumidan voz kechib, ushbu sohada ishlab

chiqarishning yangi usullarini joriy qilish masalasi ko'tarilgan edi. Lekin, ushbu Plenumda qishloq xo'jaligida rahbarlikning iqtisodiy metodlari va tovar-pul munosabatlarini joriy qilishga ahamiyat berilmagan. Bu kabi o'zgarishlar sovet siyosiy tuzumi sharoitida amalga oshirishining imkoniyati ham bo'lmagan.

Sovet rahbariyati tomonidan 1950 yillarning ikkinchi yarmida qishloq xo'jaligini boshqarishda bir qator ziddiyatli qarorlar qabul qilingan. Bu kabi qarorlardan biri bu MTSlarni qayta tashkil qilish va ularga tegishli bo'lgan qishloq xo'jalik texnikasini berish bilan bog'liq edi. Ushbu qaror bir tomondan asosli edi, lekin boshqa jihatdan ulardan olingan texnika kolxozlarga tekin berilmagan, balki ular sotib olishi shart bo'lgan, natijada ko'plab kolxozlarning iqtisodiy ahvoriga putur yetgan. Ikkinchi tomondan esa ko'p kolxozlar texnikani shu zahoti sotib olish uchun mablag'i bo'lmaganligi sababli, mavjud qarzlarni yillar davomida to'lab borgan, bu esa kolxozchilarning noroziligiga sabab bo'lgan.

Shuningdek, ushbu qarorning yana bir salbiy jihatlaridan biri bu MTSlarda faoliyat yuritgan malakali mexanizator va mexanik kadrlarni yo'qotish bilan bog'liq edi. Qonun bo'yicha ular kolxozlarga o'tishlari kerak bo'lgan, bu esa ularning ko'plari uchun hayot darajasining pasayishiga olib kelar edi. Shuning uchun ular o'zlariga rayon markazlari va shaharlarda ish topishgan. Natijada texnikaga bo'lgan munosabat yomonlashgan, chunki kolxozlarda texnika saqlanadigan yopiq parklar bo'lmaganligi sababli texnika qarovsiz bo'lib, tezda ishdan chiqqan. Buning ustiga kolxozchilarning texnik madaniyati ham past bo'lgan[12].

Shunday qilib, yuqorida ta'kidlanganidek, paxtachilikni rivojlantirish va paxta yetishtirishning muttasil o'sib borishini ta'minlash kabi vazifalar O'zbekiston SSR iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, ushbu vazifani bajarishga respublika sanoat soha vakillari ham keng miqyosda jalb qilingan. Demak, O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligi, umuman olganda, uning iqtisodiyotida paxtachilikni rivojlantirish sovet rahbariyati uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan. Ushbu omil o'z navbatida, O'zSSR iqtisodiyotida paxtachilikni rivojlantirish ustuvor ahamiyatga ega bo'lishi hamda uning qishloq xo'jaligida asosiy soha bo'lib qolishi uchun zamin yaratdi.

Xulosa qilib shuni qayd etish mumkinki, SSSR rahbariyatining O'zbekiston SSRni mamlakatning xom-ashyo bazasiga aylantirish bo'yicha olib borgan siyosati Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda ham davom etdi. Respublika rahbariyati esa SSSR hukumatining qarorlarini so'zsiz bajarishga majbur edi.

References:

1. Ходжиев Э. Х. История орошения и освоения Голодной степи. – Ташкент: Фан, 1975. – С. 137, 187.
2. Очерки истории коммунистической партии Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 1974. – С. 471, 768.
3. Ўзбекистон ССР тарихи. II Том... – Б. 460.
4. Ўзбекистон тарихи (1917–1991). Иккинчи китоб. 1939–1991 йиллар... – Б. 79.
5. Ўзбекистон тарихи (1917–1991). Иккинчи китоб. 1939–1991 йиллар. – Тошкент: O'zbekiston, 2019. – Б. 80.
6. Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях и решениях съездов и пленумов ЦК. Том второй. 1938–1959.... – С. 365.

7. Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях и решениях съездов и пленумов ЦК. Том второй. 1938–1959.... – С. 523.
8. Ўзбекистон ССР тарихи. II Том... – Б. 475.
9. Ирригация в Узбекистане. В 4-х т. – Ташкент, 1975. – С. 7.
10. Аминова Р. Х. Совхозы Узбекистана в 1961–1985 годы: опыт, проблемы, уроки. – Ташкент: Фан, 1996. – С. 20.
11. Очерки истории коммунистической партии Узбекистана... – С. 493–494.
12. Аминова Р. Х. Совхозы Узбекистана... – С. 25
13. Кадилова Х.Б., Мамедов Х.В. Сопоставительный анализ икс-фемического характера азербайджанских, турецких и узбекских огублённых и неогублённых пословиц и поговорок // SAI. 2024. №Special Issue 28. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sopostavitelnyy-analiz-iks-femicheskogo-haraktera-azerbaydzhanskih-turetskih-i-uzbekskih-ogublyonnyh-i-neogublyonnyh-poslovits-i>
14. Юсупов Ў.Қ. Тилшуносликда янги йўналишлар ва уларда ишлатиладиган айрим истилоҳлар // Филология масалалари. – Тошкент, 2011. – № 2. – 24-б.

INNOVATIVE
ACADEMY